

# **BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY TAYYORLASH JARAYONIDA ULARNING MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH**

**Hamidova Barno Maxmudovna**  
**Jizzax davlat pedagogika instituti magistranti**

**Annatatsiya:** Ushbu ishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda pedagogika bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash masalalari qarab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsiya, texnologiya, pedagogika kollejlari.

Mamalakatimining ustuvor yo'nalishlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarni insonga, uning ma'naviy, kasbiy faoliyatiga qaratishdan iboratdir. Inson ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lishi bilan bir qatorda, uning ta'siri ostida o'zi ham kamol topadi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji bilan inson kamoloti o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikda inson omili belgilovchi hisoblanadi. Chunki bu jarayonga inson mavjudligi, yashashi bilan emas, balki aql-zakovati, kasbiy mahorati bilan kuchli ta'sir qilib, jamiyat barcha jabhalari rivojini tezlashtiradi, o'zi ham jismoniy, ma'naviy, kasbiy jihatdan o'zgaradi. Bunga inson jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishda qo'llash hamda o'zining mahoratidan unumli foydalanish orqali erishishi mumkin. Xuddi shuningdek o'z aql-zakovati, ma'naviyati, mahoratini oshirishda ham ma'lum usul va vositalardan foydalanadi. Bular muttasil o'z ustida mustaqil ishlab fan, texnika, tarix, tibbiyot, huquqqa doir yangiliklarini o'rganib, o'zining umumiy madaniy saviyasi va kasbiga doir yangiliklarni o'zlashtiradi. Bunga malaka oshirish orqali erishadi. Jamiyat taraqqiyoti va o'z kamolotini tezlashtirishdagi dialektik bog'liqlikda eng muhimi inson o'z o'rnini to'g'ri anglashi lozim. O'zini anglash, o'z hatti-harakatini boshqarish, bu borada amalga oshirgan va qilishi lozim bo'lgan ishlarni belgilab olish insonni yangi intilish va harakatlarga undaydi.

Ma'naviy, axloqiy, ruhan tetik pedagogik jamoada o'qituvchi o'zini erkin tutadi, tarqoq, ta'lim-tarbiyada yagona maqsadi bo'lmagan jamoa o'qituvchining shaxsiy va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Shunga qarab jamoaning alohida o'qituvchilarga ta'siri uning ijodiy rivojlanishga turlicha: tezkor yoki sust ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida ularning ma'naviyatini shakllantirishda pedagogik mummoli vaziyatlardan foydalanish samara beradi.

Vaziyat deganda, voqealar rivoji yoki natijasi insonga qiziqish hosil qiluvchi aniq jarayonni aks ettiruvchi obrazli, verbal va analitik axborotlar yig'indisi tushuniladi. Pedagogik vaziyatlar deganda esa, ijtimoiy hayot voqeliklarini kuzatish, aniqlash va hal etish orqali aniq xulosalarga kelishga imkon beruvchi obrazli, verbal va analitik axborotlar majmui tushuniladi. Pedagogik vaziyatlar talabalarda ijtimoiy, ma'naviy voqelikka faol munosabatni qaror toptiribgina qolmay, balki ularning ijtimoiy moslashuvini jadallashtirishda ham katta ahamiyatga ega.

Pedagogik vaziyatlarning yechimini izlab topish jarayonida ilgarigi amallarni bajarish doimiy nazorat qilib boriladi. Ularni tahlil qilish natijasida sub'ekt topshiriqlarni bajarishning umumiy usullarini o'zlashtiradi. Topshiriqlar muvaffaqiyatli bajarilganda talabalarning mustaqilliklari avtonom xususiyat kasb etadi, so'ngra to'la mustaqillikka erishiladi. Pedagogik vaziyatlar talabalar e'tiboriga darhol uni hal etish mumkin bo'lgan masala ko'rinishida havola etiladi. Talabalarga vaziyatlarni bunday ko'rinishda taklif etish jarayonida sub'ektlar tomonidan tashkil etiluvchi intellektual faoliyatni go'yoki talabalar o'rniga o'qituvchi amalga oshirgandek bo'ladi. Mustaqil o'qishda shartlar oldindan ma'lum qilinmaydi.

Agarda o'qituvchi tomonidan masalaga aylantirilgan pedagogik vaziyatlar taqdim etilganda talaba yechim yo'lini topa olmasa, u holda u aniq vaziyatga duch kelib, ushbu vaziyatni kasbiy ma'naviyat bilan uyg'unlashgan pedagogik muammoning yechimini izlashga imkon beruvchi holatga aylantira olmaydi. Vaziyatning yechimini izlab topish ma'lum didaktik vazifalarga qat'iy amal

qilishni taqozo etadi. Vaziyat shartlari avvaldan tuzuvchi tomonidan belgilab quyilganda, talabdan vaziyatni qayta o'zgartirish malakasini namoyish qilish talab etilmaydi. Shu bois talabalar bilimlarini boshqa vaziyatga ko'chirish va ularni amalda qo'llashda qiyinchiliklar his etadilar.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, talabalar pedagogik vaziyatlarning yechimini izlab topishda, taxminan bir xil darajada ekanliklari, biroq ma'naviyat bilan uyg'un pedagogik muammolar shartini ifoda etishga tayyor emasliklarini ko'rsatdi.

Kasbiy ma'naviyatni rivojlantirishda ko'proq shartlari ifoda etilmagan topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladi. Vaziyatga yechim izlar ekan, talaba shartlarni o'zgartirish qonunlari bilan tanishadi, aniq bir muammoni tahlil qilish va topshiriqni bajarishda mavjud ko'nikma va malakalardan foydalanadi. Muammoli vaziyatlar yordamida kasbiy ma'naviyatga doir tushunchalarni shakllantirish talabalarga mustaqil ravishda muammo belgilarini aniqlash, muhim ma'lumotlarni ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajratib olish va qo'shimchalarni izlab topish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Uktamova, U., & Berdiyorova, S. (2020). THE ROLE OF COMMUNICATION IN PEOPLE'S RELATIONSHIPS AND WAYS OF LEARNING TO COMMUNICATE. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA QOBILIYATNING PSIXOLOGIK TAVSIFI. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). Ў?увчиларга маънавий-ахло?ий тарбия бериш орқали экологик маданиятини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI.

Berdiyorova, S., & Uktamova, U. (2020). РОЛЬ ОБЩЕНИЯ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЛЮДЕЙ И СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ К ОБЩЕНИЮ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Uktamova, U. (2020). АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ НА РАЗВИТИЕ ВЗГЛЯДОВ ДЕВУШЕК. EurasianUnionScientists, 1(10 (79)), 45-47.

Uktamova, U. (2020). ОИЛАВИЙ ЗЎРАВОНЛИКНИНГ КЕЛИБ ЧИ?ИШ САБАБЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (1).

Сунатуллаевна УУ (2021 г., январь). ТАЛАБА КИЗЛАРДА ТАЗЫИК ВА ТАДЖОВУЗГА КАРШИ ДУНЁКАРАШНИ ШАКЛЛАНТИШ. В евро-азиатских конференциях (Том 1, № 1, стр. 504-508).

Уктамова, У. (2020). ЁШЛАР ФАОЛИЯТИНИ БУНЁДКОР ?ОЯЛАР БИЛАН БАНД ?ИЛИШ МУАММОСИ. Архив Научных Публикаций JSPI .

Махаматова, Ф. (2020). Таълим-тарбия самарадорлигини оширишда ота-она ибрат намунаси. Архив Научных Публикаций JSPI.

Махаматова, Ф. (2020). Педагогика фанини ў?итиш жараёнида муоммоли ў?итиш технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.

Махаматова, Ф. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсирлар. Архив Научных Публикаций JSPI.

Махаматова, Ф. (2020). Sog'lom oilaviy muhitni himoya qilishning qonuniy asoslari. Архив Научных Публикаций JSPI.

Махаматова, Ф. (2020). Современные тенденции" учитель-ученик" в системе непрерывного образования: проблемы и решения. Архив Научных Публикаций JSPI.

Махаматова, Ф. (2020). Развитие страхования в инновационной сфере. Архив Научных Публикаций JSPI.

Safaraliyevna, M. F. (2021). Pedagogical bases of formation of readiness of students to work. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 528-531.

Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).

Safaraliyevna, M. F. (2021, January). PEDAGOGICAL BASES OF INVOLVEMENT OF STUDENTS IN LABOR EDUCATION. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 290-296).

Rahmatova, F. (2020). THE WAYS OF UTILIZING PROBLEMATIC STUDY IN ENHANCING THE MATHEMATICAL MIND OF THE UPCOMING PRIMARY EDUCATION TEACHERS. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2021). Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини ривожлантиришда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

Rahmatova, F. (2020). METHODS OF INNOVATION TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATION. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Main Features of Mathematical Subjects at Primary Schools. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IMPROVING MATHEMATICAL THINKING. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). ТАЛАБАЛАРНИНГ МАТЕМАТИК ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ИМКОНИАТЛАРИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УМЕНИЙ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Математика фанини ўқитишнинг дидактик таъминоти. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Математик тафаккурни такомиллаштиришда матнли масалалардан фойдаланишда узлуксизлик тамойилининг аҳамияти. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). СОЗДАНИЕ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ОБЛАСТИ ТВОРЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ. Архив Научных Публикаций JSPI.

Rahmatova, F. (2020). Талабаларда математик тафаккурни шакллантириш омиллари. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-6.

Rahmatova, F. (2021). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yunalishi bo'yicha faoliyat. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

Rahmatova, F. (2021). O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Журнал инновации в начальном образовании, 2(3).

Rahmatova, F. (2021). The Formation Of Research Competencies Of Future Primary School Teachers. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Rahmatova, F., & Abrorxonova, K. (2021). Educational issues in the works of enlightened intellectuals. Журнал инновации в начальном образовании, 1(Архив№ 2).

Rahmatova, F. (2020). БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТАМОЙИЛЛАРИ. Журнал инновации в начальном образовании.